

LINGVOKULTUROLOGIYA VA DISKURS TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI

Usmanova Farangiz Ilhombek qizi

O'zbekiston Respublikasi Farg'ona viloyati Farg'ona shahar

10-umumiy o'rta ta'lim maktabi nemis tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada til va madaniyat o'zaro aloqalarini o'rganuvchi lingvokulturologiya hamda nutqni ijtimoiy-madaniy kontekstdan tahlil qiluvchi diskurs tahlilining nazariy asoslari yoritilgan. Unda “lingvokulturologiya” va “diskurs” tushunchalarining shakllanishi, ularning zamonaviy lingvistikadagi o'rni va integratsiyasi tahlil qilingan. Tadqiqotda lingvokulturologik va diskursiv yondashuvlar asosida tilning madaniyat ko'zgusi sifatidagi roli, milliy qadriyatlarning frazeologik birliklar hamda metaforalarda aks etishi ilmiy asosda ko'rsatib berilgan. Nemis tilidagi Kindeswohl, Familienpolitik, Elternzeit, kinderfreundlich kabi birliklar misolida “bola – kelajak” konseptining madaniy semantikasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, diskurs tahlili, til va madaniyat, konsept, frazeologizm, madaniy xotira, antropotsentrik lingvistika, nemis jamiyati, Kindeswohl, Familienpolitik.

KIRISH

Til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasi tilshunoslikda uzoq tarixga ega. V. fon Humboldt har bir xalq tili o'zida shu xalqning milliy ruhini, dunyoqarashini ifoda etadi, til millatning “ichki nigohi”ni shakllantiradi, deb ta'kidlagan edi [1; 54]. Keyinchalik amerikalik tilshunos E.Sapir ham tildagi kategoriyalar inson tafakkuri va ijtimoiy reallikni idrok etish tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatishini yozgan – u tilni “ijtimoiy haqiqatga yo'riqnoma” deb atagan edi [2; 162]. Uning shogirdi B.Uorf esa turli tillarda so'zlashuvchilar dunyoni idrok etishda “tabiatni o'z ona tillari belgilagan chiziqlar bo'ylab bo'lishlarini” ilgari surib, til tafakkurga doir stsenariylarni belgilab berishini nazariy jihatdan asoslab berdi [3; 213]. Ushbu Sapir-Uorf gipotezasi til va madaniyat birligi g'oyasini ilmiy doirada mustahkamlab, til xalqlarning o'ziga xos dunyo manzarasini shakllantiruvchi omil ekani haqidagi qarashlarni yoydi.

XX asr oxirlariga kelib til va madaniyat uyg'unligini maxsus o'rganishga qaratilgan yangi yo'nalish – lingvokulturologiya shakllandi. Mazkur atama Moskva frazeologik maktabi tadqiqotlari doirasida V.N.Telia rahbarligida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, til va madaniyatning sinxron bog'liqligini tadqiq etishga qaratilgan yangi yo'nalishni anglatadi [4; 21]. V.A.Maslova ushbu sohani “tilshunoslik va madaniyatshunoslik tutashgan chegara hosilasi sifatida yuzaga kelgan, xalq madaniyatining tilda mustahkamlangan ko'rinishlarini o'rganuvchi” fan deb ta'riflaydi [5; 9]. Maslova lingvokulturologiyani integrativ, gumanitar yo'nalish sifatida tavsiflar

ekan, uning maqsadini “til birliklarida milliy madaniyat qanday aks etishini aniqlash, til o‘zida qanday madaniy ma’lumotlarni saqlab va avlod-dan-avlodga uzatishini o‘rganish” deb belgilaydi [5; 35]. V.V.Krasnyx lingvokulturologiyaning obyekti til va madaniyat o‘zaro aloqasi, predmeti esa “lingvistik va ekstralingvistik (madaniy) mazmunning dialektik birligini tashkil etuvchi, muayyan xalqning mental-lingvistik kompleksini yorituvchi til birliklari” ekanini ta’kidlaydi [6; 12]. Xususan, u lingvokulturologiyani milliy dunyo manzarasi va lingvistik ong kabi tushunchalarni o‘rganishga yo’naltirilgan fan deb hisoblaydi. Volgograd lingvistik maktabi vakili V.I.Karasik lingvokulturologiyani “til va madaniyat o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri haqidagi murakkab ilmiy bilim sohasi” deb ataydi va uning qiyosiy xarakterga ega ekanligini alohida qayd etadi [7; 108]. Karasikning ta’kidlashicha, lingvokulturologiyaning asosiy birligi – madaniy konsept bo‘lib, bunday konseptlarni o‘rganish orqali muayyan xalq madaniyati va tafakkurining o‘ziga xos jihatlarini ochib berish mumkin [7; 121].

Bu orada G‘arb tilshunosligida “diskurs” tushunchasi va uni tadqiq etish usullari jadallik bilan rivojlandi. Dastlab lingvistikada diskurs tushunchasi matn doirasidan kengroq – yaxlit bog‘langan nutq, matn va kontekst birligi ma’nosida qo‘llanila boshlandi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab esa diskursga ijtimoiy kontekstdan ajratib bo‘lmaydigan hodisa sifatida yondashuv shakllandi. Jumladan, N.Feyrklaf diskursni jamiyatdagi ijtimoiy amaliyotning bir ko‘rinishi deb tavsiflab, nutq faqat mavjud ijtimoiy haqiqatni aks ettirib qolmasdan, balki uni mazmun jihatdan qayta yaratishini ta’kidlaydi [8; 64]. Boshqacha aytganda, diskurs – bu haqiqatni nafaqat aks ettiradigan, balki uni belgilab, shakllantiradigan jarayon hamdir. Xuddi shuningdek, T. van Deyk, R.Vodak kabi olimlar diskurs orqali ijtimoiy hokimiyat munosabatlari va madaniy qadriyatlar uzatilishi va mustahkamlanishini ko‘rsatib berishga intiladilar [9; 33], [10; 8]. Hozirgi talqinga ko‘ra, lingvistikada diskurs deganda ma’lum ijtimoiy-madaniy sharoit va kommunikativ vaziyatda yuzaga keladigan, ishtirokchilarning rollari hamda maqsadlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan matn-nutq faoliyati tushuniladi. Diskurs – bu madaniy kontekstni o‘zida mujassam etgan va yangi ma’no hamda konseptlarni shakllantiruvchi kommunikativ tizim sifatida qaralmoqda.

Diskurs madaniyatni ifodalovchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi: unda jamiyat uchun muhim bo‘lgan qadriyatlar va metaforik konsepsiyalar til vositasida mustahkamlanadi. Masalan, Germaniyada keng tarqalgan “Kinder sind unsere Zukunft” (“Bolalar – bizning kelajagimiz”) shiori va unga hamohang siyosiy-ijtimoiy iboralar orqali “bola – jamiyat kelajagi” degan madaniy konsept ifoda etiladi. Darhaqiqat, nemis jamoat nutqida Kindeswohl (“bolaning farovonligi”), Familienpolitik (“oilasiyosati”), Elternzeit (“ota-ona ta’tili”), kinderfreundlich (“bolaga do‘stona, bola uchun qulay”) kabi birikmalar tez-tez qo‘llanib, farzand tarbiyasi va bola manfaati ustuvor qadriyat sifatida talqin etilayotganini ko‘rish

mumkin. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, aslida Kindeswohl atamasi dastlab huquqiy tushuncha bo'lib, 2005-2009-yillardagi qator ijtimoiy voqealar (oilalarda bolalar qarovsizligi mojarolari) tufayli ommaviy diskursda keng qo'llanila boshlagan – jamiyatda bolalar farovonligini ta'minlash dolzarb vazifa ekani haqida keng konsensus shakllangan. Demak, til va diskurs orqali nemis jamiyati ongida “bola – kelajak, bola – mas'uliyat” kabi ma'naviy bog'lanishlar shakllantirilganini kuzatish mumkin. Shu bois Germaniyadek mamlakat misolida til orqali madaniy mentalitetni aks ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi – lingvokulturologiya va diskurs tahlilining nazariy asoslarini batafsil tahlil qilish hamda ushbu yondashuvlarning konseptual tadqiqotlardagi o'rnini belgilashdir. Xususan, zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik doirasida til, madaniyat va tafakkur birligini yoritishda lingvokulturologik va diskursiv yondashuvlar qanday o'zaro bir-birini to'ldirishi ko'rsatib beriladi. Misollar sifatida nemis madaniy kontekstidagi “farzand” (Kind) konsepti va u bilan bog'liq til birliklari tahlil qilinadi.

METODLAR

Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, uning negizida tilni madaniy hodisa sifatida talqin etish yotadi. Telia tomonidan asos solingan ushbu yo'nalishda til birliklarining ma'no va foydalanishidagi madaniy omillar tahlil qilinadi [4; 77]. Rus lingvokulturologiya maktabi vakillari (Telia, Maslova, Karasik, Krasnyx va boshqalar) tilda millatning tarixi, mentaliteti va qadriyatlari mujassam ekanini nazariy jihatdan asoslab berdilar. Masalan, Maslova tilni milliy madaniyatni saqlovchi va uzatuvchi tizim sifatida ko'rib, lingvokulturologiyada folklor, frazeologizm, metafora kabi birliklarni alohida o'rganish lozimligini ta'kidlaydi [5; 32]. Karasik (2002) lingvokulturologiyada kulturologik konseptlar va fon bilimlar (background knowledge) tushunchalarini markaziy o'ringa qo'yadi – u til vositasida ifodalanadigan konseptual mazmunni anglash uchun shu xalq madaniy kontekstini bilish zarur deb hisoblaydi [7; 103]. V.V.Krasnyx esa lingvokulturologiyani etnopsixolingvistika bilan bog'liq holda rivojlantirib, til va madaniyat bog'liqligini nafaqat hozirgi, balki tarixiy nuqtai nazardan ham o'rganish kerakligini uqtiradi [6; 12]. Ushbu yondashuvlarning barchasi tilni milliy madaniyat ko'zgusi va “xalq ruhi xazinasini” sifatida talqin etuvchi antropotsentrik paradigмага tayanadi.

Diskurs tahlili til birliklarining keng kommunikativ muhitda qanday ishlashini va ijtimoiy kontekst bilan qanday bog'lanishini o'rganadi. Kritik diskurs tahlili (KDT) maktabi vakillari – R.Vodak, T. van Deyk, N.Feyrklaf, S.Yeger kabilar diskursni ijtimoiy kuchlar va mafkuralar o'zaro kurashadigan maydon sifatida talqin qiladilar. Jumladan, Vodak va Mayer diskurs tahlilining zamonaviy usullarini bayon qilib, til jamiyatda hokimiyat va tengsizlik munosabatlarini qanday yuzaga keltirishi va

mustahkamlashini tanqidiy tahlil qilish muhimligini ko'rsatadilar [10; 2]. Van Deyk diskursni ijtimoiy voqelikning kognitiv modelini yaratadigan jarayon deb bilib, diskurs orqali odamlar ongida kontekstga oid tasavvurlar shakllanishini tadqiq qiladi [9; 28]. Feyrklaf esa diskursni "ijtimoiy amaliyot" deb atab, unga uch o'ldovli yondashuvni taklif qiladi: har qanday diskursiv hodisa matn, diskurs amaliyoti va ijtimoiy amaliyot sifatida bir vaqtda ko'rilishi lozim [8; 90]. S.Yeger nemis diskurs tahlili doirasida diskursning ideologik funksiyalarini tahlil qilishga e'tibor qaratib, matnda yashirin qudrat va mafkura unsurlarini aniqlash metodikasini ishlab chiqdi [11; 45]. Diskurs tahlilining nazariy asosi, shuningdek, madaniy xotira kontseptsiyasi bilan boyitilgan. J.Assmann madaniy xotira tushunchasini kiritib, jamiyatning tarixiy tajribalari va qadriyatlari kommunikativ diskurs orqali avloddan-avlodga o'tishini tushuntiradi [14; 20].

Til orqali ifodalanuvchi madaniy ma'nolarni anglashda kognitiv tilshunoslik tushunchalari – konsept, freym, protitip, stereotip va boshqalar muhim o'rin tutadi. C.Fillmor tomonidan ilgari surilgan freym semantikasi nazariyasiga ko'ra, har bir konsept ma'lum bir bilim doirasini (freymni) tashkil etadi va so'z ma'nolari shu doira orqali talqin qilinadi. J.Bartminskiy Polsha etnolingvistika maktabi doirasida lingvistik dunyo manzarasi tushunchasini ishlab chiqqan bo'lib, u til birliklari va mazmuniy kategoriyalarda xalqning dunyoni qanday "ko'rishi" aks etishini tahlil qiladi. Bartminskiy fikricha, tilda saqlanuvchi ma'no va konnotatsiyalarni o'rganish orqali xalqning profilenlanuvchi dunyoqarashini aniqlash mumkin (masalan, turli tillarda "baxt" tushunchasining turlicha talqini). A.Wierzbicka esa har bir tilda eng muhim milliy "kalit so'zlar" mavjud bo'lib, ular xalqning asosiy qadriyat va tushunchalarini aks ettiradi, deb hisoblaydi [18]. U o'zining tabiiy semantik metatili usuli yordamida turli tillardagi konseptlarni taqqoslab, madaniyatlararo umumiy va xos ma'nolarni aniqlaydi. Xususan, Wierzbicka ingliz, rus, polyak, yapon tillarining asosiy madaniy tushunchalarini tahlil qilib, "erkinlik", "yondashuv" kabi so'zlarda milliy tafakkur o'ziga xosligi namoyon bo'lishini ko'rsatgan [12; 15].

Nemis tilshunosligida ham kognitiv yondashuv vositalari diskurs tadqiqotlariga tatbiq etilmoqda. D.Busse freym-semantika bo'yicha keng qamrovli qo'llanmasida so'z ma'nolarini konseptual freymlar orqali tahlil qilish metodlarini ishlab chiqqan [15; 30]. A.Ziem esa diskursdagi freymlar tadqiqiga bag'ishlangan ishida nutq jarayonida aktyorlar ongida shakllanadigan kognitiv tuzilmalarni, ya'ni freymnlarni aniqlash va modellashtirish usullarini taklif qiladi [16; 14]. Ziemning ta'kidlashicha, diskurs davomida ishtirokchilar muayyan freym doirasida konseptlarni tushunadi va shu orqali muloqot samarali kechadi, turli madaniy-diskursiv hamjamiyatlarda bir xil hodisa turlicha freymlarda talqin qilinishi mumkin [16; 28]. Demak, kognitiv asoslar lingvokulturologiya va diskurs tahlilini bog'lovchi nazariy zamin bo'lib, konseptlarni freym modeli shaklida tasvirlashga imkon beradi.

Til va madaniyatga oid birliklar ilmiy manbalarda qanday talqin etilgani o'rganilib, ularning nazariy tavsifi berildi. Jumladan, "lingvokulturologiya" atamasining turli olimlar (Telia, Maslova, Karasik va boshqalar) tomonidan berilgan ta'riflari qiyosan tahlil qilindi, "diskurs" tushunchasining evolyutsiyasi turli nazariyalar prizmasida yoritildi. Bu usul yordamida mavhum tushunchalarning ilmiy izohlarini aniqlashtirish va umumlashtirish imkoni bo'ldi.

Turli madaniy muhitlarda til va diskurs orqali ifodalanuvchi konseptlar qiyosan solishtirildi. Xususan, o'zbek va nemis tillarida "farzand" konsepti bilan bog'liq iboralar, maqollar o'rtasidagi umumiylik va farqlar ko'rsatildi. Anna Wierzbicka ta'kidlaganidek, har bir tilning o'ziga xos "kalit so'z"lari mavjud bo'lib, qiyosiy tahlil ular ortidagi madaniy mazmunni yuzaga chiqaradi [12; 22]. Turli tillardagi materialni qiyoslash lingvokulturologik xulosalarning ishonchliligini oshiradi.

Matn va nutqdagi birliklar keng ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil qilindi. Ya'ni, muayyan ibora yoki gapning ma'nosi u qo'llanilgan kommunikativ vaziyat, nutq janri va ishtirokchilarning ijtimoiy roli bilan bog'liq holda ochib berildi. Masalan, Kindeswohl atamasi rasmiy-huquqiy diskursda qanday qo'llanishi va ommaviy axborot vositalarida qanday talqin qilinishi kontekst yordamida tahlil qilindi. Vodakning diskurs-tarixiy yondashuvi matnni paydo bo'lgan konteksti va tarixiy sharoiti bilan bog'lab o'rganish zarurligini ta'kidlagan bo'lsa, ushbu tadqiqotda ham Kindeswohl atamasining 2000-yillar nemis jamoatchilik diskursidagi qo'llanilishi tarixiy dinamika asosida izohlandi [10; 18].

Lingvokulturologik birliklarning ma'nosini kognitiv-freym modeli asosida tasvirlashga harakat qilindi. Bunda konseptning tarkibiy qismlari (obraz, mazmun, qadriyat komponentlari) ajratilib, Fillmor tavsiya etgan freym semantikasi usuli qo'llandi. Misol tariqasida "farzand – kelajak" metaforasi nemis tilidagi Zukunft, Kindeswohl kabi birliklar misolida freym sxemasi ko'rinishida modellastirildi. D.Busse va A.Ziem asarlarida bayon etilgan freym tahlili usullari konseptual tuzilmalarni aniqlashda metodik asos bo'lib xizmat qildi [15; 25], [16; 32].

Natijalar

Lingvokulturologiya tamoyillariga ko'ra, til milliy madaniyatning oyna kabi aksi hisoblanadi. Har bir xalqning tilida o'sha xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va qadriyatlari muhrlangan bo'ladi. V.A.Maslova til xalqning barcha moddiy va ma'naviy tajribalarini o'zida jamlab, avloddan-avlodga yetkazuvchi xotira qurilmasi vazifasini o'taydi, deydi [5; 32]. Darhaqiqat, lug'at boyligi, undagi tushunchalar tizimi orqali jamiyat qanday fikrlashi va nimalarni muhim deb bilishi yuzaga chiqadi. Masalan, o'zbek tilida "yuz" (obro'-e'tibor ma'nosida) yoki "og'iz" (so'z, gap ma'nosida) kabi so'zlarning ko'plab barqaror birikmalarda qatnashishi xalqimiz nutq madaniyatida obro' va so'zga qo'yiladigan qadriyatning balandligini ko'rsatadi. Xuddi shunday, ingliz tilida "freedom" so'zi atrofida keng frazeologik dalalar shakllangani (masalan,

freedom of speech, freedom of choice va hokazo) anglo-amerika jamiyatlari uchun erkinlik qadriyati markaziy o‘rin egaligidan dalolat beradi. Demak, til madaniy genlarni saqlovchi va aks ettiruvchi tizim bo‘lib, uning mazmun qatlamlarini tahlil etish orqali xalqning madaniy qiyofasini ilg‘ash mumkin.

Lingvokulturologik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, millatning tarixiy tajribasi, urf-odati va dunyoni idrok etish tarzi tilga singib ketgan bo‘ladi. V.V.Krasnyx fikricha, tilda xalqning milliy ongi va dunyo manzarasi aks etadi, til birliklarining semantik tahlili orqali xalqning ichki ruhiy olamini anglash mumkin [6; 12]. Masalan, yapon tilida “giri” (burch, qarzdorlik) va “ninjo” (shaxsiy tuyg‘u) tushunchalarining tildagi ko‘rinishlari yapon jamiyatida ijtimoiy burch va shaxsiy his tuyg‘usi o‘rtasidagi an‘anaviy qarama-qarshilikni ko‘rsatadi (Bartminskiy misoli). Madaniy kollektiv xotira ham til orqali namoyon bo‘ladi, tarixiy voqealar, e‘tiqodlar va qadriyatlar avloddan-avlodga asosan og‘zaki va yozma diskurs vositasida o‘tadi. Jan Assmanning qayd etishicha, jamiyatning madaniy xotirasi matnlar, ramzlar va urf-odatlarda yashaydi va til bu xotirani uzatishning asosiy vositasidir [14; 45]. Xususan, har bir xalq folklori va maqollarida ularning asrlar davomida yig‘ilgan tajribasi va hayotiy saboqlari mujassam bo‘ladi, bu esa til vositasida tarixiy xotira saqlanishining yorqin misolidir.

Tilning barqaror birikmalari xalq madaniyati va mentalitetining “genetik kodi” sanaladi. Frazologik birliklar ko‘pincha bevosita tarjima qilib bo‘lmaydigan chuqur milliy-ma‘naviy mazmunni ifoda etadi. V.N.Telia rus tilida keng tarqalgan frazeologizmlarni tahlil qilar ekan, ularning semantikasida rus xalqining an‘anaviy dunyoqarashi va qadriyati aks etishini ko‘rsatgan [4; 115]. Masalan, rus tilidagi “коломбурить” (“so‘z o‘yini qilmoq”) fe‘li ortida ruslarning kulgi va hazil-mutoyibaga munosabati yotadi, yoki “сесть в калошу” (“galosha ichiga o‘tirib qolmoq” – xijolat bo‘lmoq) iborasi orqali jamoat ichida sharmanda bo‘lish konsepti ifodalanadi. Bu kabi iboralar tilshunos olimlar tomonidan lingvokulturologik jihatdan sharhlanganda, rus madaniyatiga xos “obrazlar galereyasi” namoyon bo‘lgan. Xuddi shuningdek, o‘zbek tilidagi “otning qashqasidan” (eng yuqori daraja ma‘nosida) singari iboralar faqat o‘zbek madaniy kontekstida tushunarli bo‘lib, ular orqali xalqning tarixiy turmush tarzi va obrazli tafakkuri aks etadi.

Diskursni lingvistik jihatdan tahlil qilishda bir nechta muhim omillar hisobga olinadi. Ulardan birinchisi – kommunikativ vaziyat va kontekst. Har qanday nutqiy hodisaning ma‘nosi uni o‘rab turgan vaziyatga bog‘liq: qachon, qayerda, kim tomonidan va kimga nisbatan aytilgani mazmunni to‘liq anglashga ta’sir etadi. T. van Deykning ko‘rsatishicha, diskursiy tahlil uchun kontekst modeli juda muhim, unda ishtirokchilar roli, mavqeyi, kommunikativ maqsadlari, ijtimoiy munosabatlari kabi omillar kiradi [9; 35]. Masalan, “Bu juda yaxshi ekan” degan oddiy gapning ma‘nosi rasmiy majlisda rahbar tomonidan aytilganida maqtov bo‘lishi, norasmiy suhbatda

istehzo bo‘lishi yoki boshqa vaziyatda xolis baho bo‘lishi mumkin. Barchasi kontekstga bog‘liq. Demak, diskurs tahlili kommunikativ vaziyatni to‘g‘ri talqin qilishni taqozo etadi.

Ikkinchi muhim komponent – ijtimoiy-madaniy qadriyatlar va bilimlar. Har bir diskurs orqasida muayyan madaniy pragmatik maqsad va fon bilim yotadi. R.Vodak va uning hamkorlari yozishicha, diskurs orqali nafaqat axborot balki mafkuraviy va madaniy mazmun ham uzatiladi. Nutq jarayonida ba‘zan ochiq, ba‘zan zimdan holda jamiyatda qadrlil bo‘lgan g‘oyalar tarqatiladi [10; 5]. Masalan, siyosiy nutqlarda tez-tez uchraydigan “xavfsizlik”, “taraqqiyot”, “xalq manfaati” kabi so‘zlar aslida ma‘ruzachining dasturiy qadriyatlarini namoyish etadi. Diskurs tahlili shunday madaniy axborotni uzatish mexanizmlarini fosh etishga intilib, matn ortida turgan madhiyalarni, stereotiplar va ideologemalarni aniqlaydi. Teun van Deykning ta‘kidlashicha, odamlar o‘z nutqlarida dunyo haqidagi ijtimoiy bilimlariga tayangan holda xulosa chiqaradilar va mazmun yaratadilar. Demak, diskurs orqali jamiyatdagi mavjud tushunchalar va qarashlar mustahkamlanadi yoki ularga qarshi chiqiladi [9; 88].

Uchinchi komponent – janr xususiyatlari. Diskurs turli janrlar va sohaviy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, oilaviy-maishiy muloqot, siyosiy nutq, qonunchilik matni, tibbiy xulosa, ilmiy maqola. Bularning har biri o‘ziga xos lingvistik xususiyatlar va konvensiyalarga ega. Diskurs tahlilchilari har bir janr doirasida nutqning qanday qurilishi, qanday uslub va strategiyalar qo‘llanishini aniqlashadi. Misol uchun, huquqiy diskursda rasmiy uslub, aniq ta‘riflar va passiv konstruktsiyalar ustunlik qilsa, oilaviy suhbat diskursida ko‘proq emotsional ohang, murojat shakllari va ishoraviy ma‘nolar uchraydi. S.Yegering qayd etishicha, diskurs tahlilchisi matnni avvalo qaysi janrga mansubligini aniqlashi va shu janrga xos qoidalar nuqtai nazaridan tahlil qilishi lozim. Chunki, aynan janr talablariga ko‘ra gapirilgan yoki yozilgan nutq ijtimoiy funksiyasini to‘laroq ochadi [11; 88]. Shunday ekan, diskursning oilaviy, siyosiy, huquqiy, tibbiy, ta‘limiy kabi ko‘rinishlari alohida o‘rganilib, har birida madaniy ma‘no qanday shakllanishi tahlil qilinishi ilmiy ahamiyatga ega.

Muhokama

Avvalo, lingvokulturologiya ham, diskurs tahlili ham zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasiga mansubdir, ya‘ni tilni insoniy faoliyat va inson omili bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganadi. Bu yo‘nalishlarda til tizimi bilan bir qatorda til egasi bo‘lgan shaxs, uning madaniy va ijtimoiy xususiyatlari ham tahlilga tortiladi. Lingvokulturologiya tilni shunchaki grammatik tuzilma emas, balki milliy madaniyat xazinasini sifatida o‘rgansa, diskurs tahlili tilning ijtimoiy amaliyotdagi rolini, ya‘ni kommunikativ jarayondagi funksiyasini o‘rganadi. Ikkalasi ham tilni “yashaydigan” muhitdan ajratmaydi. Lingvokulturologiya til va madaniyatni bir butun holatda ko‘rsa, diskurs tahlili til va jamiyatni ajralmas birlikda tahlil qiladi.

Shuningdek, har ikkala yondashuv ham til vositasida ma'no yaratilishi jarayonini o'rganishga qaratilgan. Masalan, lingvokulturologiyada muayyan so'z yoki iboraning semantikasi orqasida qanday milliy obraz va tasavvur turganini aniqlash maqsad qilinadi (Telia, Maslova kabi olimlar aynan shu ma'noda frazeologik birliklarni "milliy obrazlar xazinasini" deb atashgan) [4; 73], [5; 32]. Diskurs tahlilida esa xuddi shu jarayon nutq darajasida gapiruvchining maqsadi, ijtimoiy holati va matnning janri inobatga olingan holda o'rganiladi. Masalan, tanqid bilan yondashilsa, siyosatchining nutqida ishlatilgan so'zlar va gaplar ortida qanday niyat va mafkura yotgani diskurs tahlili orqali ochib beriladi. Ko'rinib turibdiki, har ikki yo'nalish tilning bevosita yuzaki shaklidan chuqurroq madaniy va ijtimoiy mazmun qatlamlariga qaratilgan. Ular tilda yashirin yoki bevosita ko'rinmaydigan ma'nolarni izlab topish, til vositasida ifodalangan madaniy informatsiyani "dekodlash" bilan shug'ullanadi.

Shunga qaramay, lingvokulturologiya va diskurs tahlilining ilmiy diqqat markazida turadigan obyekt va metodlarda ma'lum farqlar mavjud. Lingvokulturologiya, avvalo, til birliklarining mazmuni va kelib chiqishiga e'tibor qaratadi, u so'zlar, frazeologizmlar, metaforalar kabi birliklarning lug'aviy-semantik va obrazli asosini tahlil qiladi. Masalan, u yoki bu millat tilidagi biror ibora qaysi tarixiy-madaniy jarayon natijasida paydo bo'lgani, qanday madaniy kodni saqlashi lingvokulturologiyaning tadqiqot savolidir. Diskurs tahlili esa, aksincha, nutq jarayoni va matnning tuzilishiga e'tibor beradi, u aynan til birliklarining qo'llanishi, matnda ularning tarqalishi, mavzular rivoji, nutq strategiyalari kabi jihatlarni tahlil qiladi. Deyarli aytish mumkinki, lingvokulturologiya "til ichiga" qaraydi (tilning mazmuniy qavatlariga), diskurs tahlili esa "til tashqarisiga", uning atrofidagi jarayonlarga va ta'siriga qaraydi. Shu ma'noda lingvokulturologiya ko'proq sinxron (hozirgi zamondagi til holati) tahliliga moyil bo'lsa (Telia lingvokulturologiya sinxron bo'lishi lozim degan fikrda edi [4; 21]), diskurs tahlili ko'pincha diaxron (o'zgarish dinamikasi) va kontekstual tahlilni ham qamrab oladi. Biroq zamonaviy tadqiqotlarda bu farq nisbiy bo'lib, lingvokulturologiyada ham tarixiy aspekt inobatga olinmoqda, diskurs tahlilida ham sinxron holat o'rganilmoqda.

Yana bir farqli jihat, tadqiqot maqsadining ohangida. Lingvokulturologiya ko'proq milliy madaniy kodlarni ochishga intilsa (Telia, Maslova, Karasik asarlarida shu ruh ko'rinadi) [5; 35], [7; 121], diskurs tahlili ko'proq ijtimoiy kuch va mafkurani tanqidiy tahlil qilishga yo'naltirilgan (Vodak, van Deyk, Feyrklaf kabi olimlarning ishlari bunga misol) [10; 2], [9; 33]. Masalan, lingvomadaniyatshunos mutaxassis "ona tilimizdagi "mehr" tushunchasi va uni ifodalovchi vositalar" mavzusida tadqiqot olib borsa, diskurs tahlilchi "OAVda qo'rqitish ritorikasining qo'llanilishi" mavzusida ishlashi mumkin. Birinchisi madaniy konseptni aniqlasa, ikkinchisi nutq strategiyasini fosh etadi. Albatta, bu farq mutlaq emas. Masalan, diskurs tahlil ham ko'pincha madaniy aspektlarni qamraydi (Vodakning immigratsiya diskursi tadqiqotlari bunda

milliy stereotiplarni ochib beradi), lingvokulturologiya ham ayrim hollarda ijtimoiy masalalarga daxldor bo'lishi mumkin (masalan, Bartminskiy va Ivashkinaning lisoniy obrazlar tahlili ijtimoiy muammolarni ham yoritadi).

Lingvokulturologiya tarafdor olimlar (V.N.Telia, V.A.Maslova, V.I.Karasik va boshqalar) tilda yashirin boylik – milliy xarakter va dunyoqarash ifodalangan deb hisoblashadi. Ular tilning ichki shakllari (metafora, frazeologizm, simvol) orqali xalqning “madaniy genofondi”ni tadqiq etishni taklif etadilar. Masalan, Telia rus frazeologiyasini tahlil qilib, undagi obrazlar tizimi rus xalqining mental xususiyatlarini aks ettirishini ko'rsatgan edi [4; 115]. Maslova esa lingvokulturologiyani alohida fan sifatida asoslab, xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini til vositalari orqali tadqiq etish zarur deb urg'ulaydi [5; 9]. Karasik ham shaxsiy va milliy konseptlar tahlili tilshunoslikda muhim o'rin tutishini qayd etadi. Uning fikricha, “til – shaxs – madaniyat” uchligi birgalikda o'rganilgandagina to'laqonli xulosa chiqarsa bo'ladi [7; 108].

Diskurs tahlilchilar (R.Vodak, T. van Deyk, N.Feyrklaf va boshqalar) esa tilni ijtimoiy hokimiyat, ideologiya va mafkura bilan bog'liq holda o'rganish kerakligini ta'kidlashadi. Ular nutq amaliyoti jamiyatdagi kuch munosabatlarini ifodalash va shakllantirishning bir usuli deb qarashadi. Masalan, Feyrklaf siyosiy diskurslarni tahlil qilib, unda hokim guruhlar til orqali o'z hukmronliklarini o'rnatish va oqlashlarini ko'rsatib bergan [8; 64-65]. Van Deyk ommaviy axborot vositalari matnlarida “Biz” va “Ular” qarama-qarshiligini o'rganib, matnda keltirilgan mazmunda joy olgan kognitiv modellarga e'tibor qaratadi, ya'ni matn yaratuvchilar va iste'molchilar ongidagi ijtimoiy sxemalar va stereotiplarni ochishga harakat qiladi [9; 88]. Vodak o'zining tarixiy-diskursiv yondashuvi yordamida Avstriya siyosiy nutqidagi antisemitizm mavzusini tahlil qilib, muayyan guruhga qarshi tarixiy stereotiplar qanday til orqali avloddan-avlodga o'tishini fosh qilgan (Vodak, 2001). S.Yeger nemis jamiyatida muhojirlarga oid diskursni tadqiq etib, matnlarda paydo bo'ladigan “begona” obrazini tanqidiy tahlil qiladi. Uning uslubida matndan “qudrat semantikasi”ni topish va tahlil etishga urg'u beriladi [11; 22].

Ko'rinib turibdiki, lingvomadaniyatshunoslar ko'proq madaniy kod va qadriyatlarni til ichidan izlasalar, diskurs tadqiqotchilari ijtimoiy kontekst va hokimiyat munosabatlarini til tashqarisidan tahlil qilishadi. Biroq ikkala qarash ham aslida bir-birini to'ldiradi. Birinchilar til mazmunining chuqurligini, ikkinchilar esa til qo'llanilishining kengligini yoritadi.

Germaniya jamiyatidagi “bola” konsepti lingvokulturologiya va diskurs tahlili kesishgan joyda o'rganilishi mumkin bo'lgan qiziqarli misoldir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, nemis tilida Kind, Kindeswohl, Familie, Zukunft kabi so'z va birikmalar majmuasi orqali “bola – kelajak” konsepti ifodalanadi. Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan, Kind (“bola”) so'zi atrofida shakllangan mazmuniy maydon

(masalan, Kindergarten – “bolalar bog‘chasi”, Kinderlos – “farzandsiz”, Kinderreichtum – “ko‘p bolalilik” kabi) nemislarning farzandga munosabati va jamiyatdagi o‘rni haqida ma’lumot beradi. Diskurs tahlili nuqtayi nazaridan esa, ommaviy matbuotda yoki rasmiy nutqlarda Kinder (bolalar) haqidagi muhokamalarda qanday metaforalar va ritorik qurilmalar qo‘llanishi (masalan, bolalarsiz jamiyatni “yo‘qolib borayotgan avlod”ga qiyoslash, yoki tug‘ilish kamayishini “inqiroz” deb atash) tahlil qilinadi. Ma’lum bo‘lishicha, nemis siyosiy va ijtimoiy diskursida bolalar ko‘pincha “kelajakka sarmoya” metaforasi orqali talqin etiladi, masalan, “biz bolalarimiz kelajagiga sarmoya kiritmoqdamiz” kabi iboralar uchraydi. Bu, albatta, jamiyatning demografik inqirozdan xavotiri va bolalarga g‘amxo‘rlikni oshirish siyosati bilan bog‘liq. Shu bilan birga, Kindeswohl tushunchasi jamiyat ongida “bola – mas’uliyatli omonat” degan qadriyatni ham mustahkamlaydi. Oilalarga Elternzeit ta’tilini taqdim etish, Kinderfreundlichkeit tamoyilini jamoat joylarida joriy etish kabi siyosatlar va diskursiv amaliyotlar orqali “bola – jamiyat oldidagi mas’uliyat” degan konsept ham shakllangan. Bu o‘rinda lingvokulturologiya bizga Kind konsepti atrofidagi madaniy semantikani (masalan, nemislarda Kindergeld – “bola puli” tushunchasi mavjudligi va uning ijobiy/munozarali qabul qilinishi) ochib berar ekan, diskurs tahlili shu mavzudagi jamoat muhokamalarini, matbuotda qanday munosabat bildirilayotganini ochib beradi. Ko‘rinadiki, bir mavzuni turli yondashuvda tadqiq qilish orqali to‘liqroq tasavvurga ega bo‘lamiz. Kind konsepti lingvokulturologik tahlilda nemislarning qadriyatlari (farzandning ahamiyati, oilaviy an‘analar) haqida ma’lumot bersa, diskursiv tahlilda nemis jamiyatining dolzarb muammolari (demografik o‘sish, ijtimoiy ta’minot va h.k.) va ular atrofidagi bahslarning tilga qanday ko‘chayotgani haqida bilim beradi. Demak, bu misol lingvokulturologiya va diskurs tahlili uyg‘unlashib ketgan tadqiqotlar samarador bo‘lishini ko‘rsatadi.

Lingvokulturologik va diskursiv yondashuvlar bir-biridan farqli vazifalarga ega bo‘lsa-da, ularning integratsiyasi tilni chuqur va har tomonlama tahlil qilish uchun mustahkam asos yaratadi. Til – garchi bir tizim sifatida o‘rganilsa-da, doimo madaniy muhitda ishlaydi va kommunikativ jarayonda namoyon bo‘ladi. Shu bois lingvokulturologiya va diskurs tahlilini birga qo‘llash orqali “til + madaniyat + tafakkur” uchligini to‘la qamrab oluvchi tadqiqot olib borish mumkin. Misol uchun, “farzand” konseptini o‘rganishda lingvokulturologiya bizga ushbu so‘zning tarixiy-etnografik asosini, folklor va urf-odatlardagi o‘rnini aniqlasa, diskurs tahlili jamiyatda bugungi kunda bu mavzu qay tarzda muhokama qilinayotgani, jamoatchilik nutqida qanday mavqe va ahamiyatga egaligini ko‘rsatib beradi. Natijada konseptning ham statik (tarixiy-madaniy) va ham dinamik (diskursiv-amaliy) jihatlari yoritiladi.

Xulosa

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, lingvokulturologiya va diskurs tahlili zamonaviy tilshunoslikning ikki asosiy tayanch yo‘nalishidir. Ular tilni o‘rganishda

antropotsentrik yondashuvni qaror toptirdilar, ya'ni tilni inson hayoti, madaniyati va jamiyati bilan uzviy bog'liq holda tushuntirib berishadi. Lingvokulturologiya til mazmunidagi madaniy qirralarni ochishga qaratilgan bo'lsa, diskurs tahlili tilning qo'llanishidagi ijtimoiy ma'nolarni tahlil qiladi. Ikkisi birgalikda til, madaniyat va tafakkur birligini ilmiy izohlashda o'zaro to'ldiruvchi nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, lingvokulturologik va diskursiv yondashuvlarning integratsiyasi konseptual tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqadi. Masalan, "farzand/Kind" konseptini tahlil qilishda faqat lug'aviy-ma'noviy tahlil yoki faqat diskursiy tahlil chegaralanib qolmasdan, ularning uyg'un qo'llanilishi orqali mazkur konseptning tilimizdagi tarixiy-madaniy ildizlari ham, bugungi jamiyat ongidagi yangicha talqini ham birvarakayiga yoritildi. Natijada, til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi chuqur hamohanglik aniqroq namoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologiya va diskurs tahlili uyg'unligi tilning milliy-madaniy mohiyatini ham, ijtimoiy-kommunikativ funksiyasini ham birlashtirib o'rganish imkonini beradi. Bu esa tilshunoslikka keng qamrovli va chuqur nazariy ko'lam bag'ishlab, til – tafakkur – madaniyat uchligini yaxlit holda anglashga xizmat qiladi. Shunday integrativ yondashuvlar kelgusida turli konseptual sohalarni (xususan, "farzand" konsepti kabi) o'rganishda yanada samarali natijalar berishi kutiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Humboldt W. von. On Language: The Diversity of Human Language-Structure and its Influence on the Mental Development of Mankind. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988. – 314 p.
2. Sapir E. The Status of Linguistics as a Science // Selected Writings of Edward Sapir in Language, Culture and Personality / Ed. by D. G. Mandelbaum. – Berkeley: University of California Press, 1949. – P. 160–166.
3. Whorf B. L. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf / Ed. by J. B. Carroll. – Cambridge (MA): MIT Press, 1956. – 278 p.
4. Telija V. N. Russkaya frazeologiya: semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty. – Moskva: Yazyki russkoy kultury, 1996. – 284 s.
5. Maslova V. A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. – 208 s.
6. Krasnykh V. V. Etnopsikholingvistika i lingvokulturologiya: kurs lektsiy. – Moskva: Gnozis, 2002. – 250 s.
7. Karasik V. I. Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs. – Volgograd: Peremena, 2002. – 390 s.
8. Fairclough N. Discourse and Social Change. – Cambridge: Polity Press, 1992. – 259 p.
9. van Dijk T. A. Discourse and Context: A Sociocognitive Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 279 p.

10. Wodak R.; Meyer M. (Eds.). *Methods of Critical Discourse Studies*. – Los Angeles: Sage, 2015. – 340 p.
11. Jäger S. *Kritische Diskursanalyse: Eine Einführung*. – Duisburg: DISS, 2012. – 156 s.
12. Wierzbicka A. *Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. – New York: Oxford University Press, 1997. – 368 p.
13. Bartmiński J. *Aspects of Cognitive Ethnolinguistics*. – London: Equinox, 2009. – 258 p.
14. Assmann J. *Cultural Memory and Early Civilization: Writing, Remembrance, and Political Imagination*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011. – 304 p.
15. Busse D. *Frame-Semantik: Ein Kompendium*. – Berlin: de Gruyter, 2012. – 412 s.
16. Ziem A. *Frames of Understanding in Text and Discourse: Theoretical Foundations and Descriptive Applications*. – Amsterdam: John Benjamins, 2014. – 305 p.
17. Görgen A.; Söhner F.; Fangerau H. *Kindeswohl als kollektives Orientierungsmuster?* – *Zeitschrift für Pädagogik*. – Bd. 64. – Weinheim: Beltz Juventa, 2018. – P. 40–53.
18. https://www.academia.edu/21725734/_Concept_in_Modern_Linguistics_the_Component_of_the_Concept_Good_